

**MA'MURIY SUDLAR TOMONIDAN YERGA OID NIZOLAR KO'RILISHIDA
PROKUROR ISHTIROKINING HUQUQIY ASOSLARI VA AHAMIYATI****Abdusattorov Jaxongir Sherzod o'g'li**

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistratura bosqichi tinglovchisi.

e-mail: abdusattorovjaxongir07@gmail.com**<https://doi.org/10.5281/zenodo.19224172>**

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ma'muriy ishlarni ko'rishda prokuror ishtirokining huquqiy asoslari, ahamiyati va amaliy jihatlarini tahlil qilingan. Shuningdek, qonunchilikdagi ayrim bo'shliqlar ko'rsatilib, ularni takomillashtirish yuzasidan takliflar ilgari surilgan hamda sud amaliyoti statistik ma'lumotlar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: prokuror ishtiroki, ma'muriy sud, yer munosabatlari, sud amaliyoti.

Аннотация. В данной статье проанализированы правовые основы, значение и практические аспекты участия прокурора при рассмотрении административных дел, вытекающих из земельных правоотношений в Республике Узбекистан. Также выявлены отдельные пробелы в законодательстве и предложены пути их совершенствования, а судебная практика освещена на основе статистических данных.

Ключевые слова: участие прокурора, административный суд, земельные отношения, судебная практика.

Abstract. This article analyzes the legal framework, significance, and practical aspects of the prosecutor's participation in administrative cases arising from land legal relations in the Republic of Uzbekistan. It also identifies certain gaps in legislation and proposes improvements, while judicial practice is examined based on statistical data.

Keywords: prosecutor participation, administrative court, land relations, judicial practice.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasiga ko'ra yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir [1].

O'zbekiston Respublikasida yer to'g'risidagi qonun hujjatlarining ijrosini nazorat qilish ushbu sohada huquq-tartibotni mustahkamlash, qonuniylikni ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda respublikamizda yer uchastkalaridan oqilona va maqsadli foydalanilishini ta'minlash, ularni muhofaza qilish, yangi yerlarni o'zlashtirish hamda qayta muomalaga kiritish borasida tizimli ishlar amalga oshirildi.

Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-fevraldagi "Yer uchastkalaridan foydalanishda davlat nazorati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 138-sonli qarori qabul qilingan.

Ta'kidlash joizki, yer uchastkalaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasida nazoratni yanada kuchaytirish maqsadida prokuratura organlari zimmasiga bir qator qo'shimcha vazifalarning yuklatilishi hozirgi kunda ma'muriy sudlarda ko'rilayotgan ishlar qatorida yerga oid nizoli ishlarning sudlarda ko'rilishida ham prokuror ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Yuridik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati, shu jumladan sudlarda prokuror ishtiroki prokuratura organlarining muhim funksiyalaridan biri ekanligi e'tirof etilgan [2].

Yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ma'muriy ishlarida prokurorning ishtirok etishi, eng avvalo, O'zbekiston Respublikasining 29.08.2001 yildagi "Prokuratura to'g'risida"gi qonunining 33-moddasida mustahkamlab qo'yilgan. Mazkur normada fuqarolarning, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini sud yo'li bilan samarali himoya qilinishini ta'minlash maqsadida *barcha instansiya sudlarida* ishlar ko'rilayotganda prokurorning qonunda belgilangan tartibda ishtiroki nazarda tutilgan [3].

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi MSiyUKning 46-moddasida ma'muriy sudlarda prokuror ishtiroki nazarda tutilgan bo'lib, mazkur moddaga muvofiq prokuror barcha ma'muriy ishlar bo'yicha sud majlisida ishtirok etishga haqli. Prokuror fuqarolar va yuridik shaxslarning, shuningdek jamiyat va davlatning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilib, sudga ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega. Ishda ishtirok etuvchi prokuror ishning mazmuni bo'yicha fikrini bayon qiladi, bundan uning boshqa shaxslarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishga doir arizasi bo'yicha qo'zg'atilgan ishlar mustasno. Fuqaroning, yuridik shaxsning, jamiyat va davlatning manfaatlarini ko'zlab ariza taqdim etgan prokuror arizachining huquqlaridan foydalanadi hamda uning majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi, bundan kelishuv bitimi tuzish huquqi mustasno [5].

O'zbekiston Respublikasining 25.12.2023 yildagi "Sud qarorlarining qonuniyligi va asoslilikini tekshirish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-889-son qonuni[5] bilan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib, yerga oid huquqiy munosabatlar bilan bog'liq ishlarni ma'muriy sudlar tomonidan ko'rib chiqishda prokuror ishtirok etishi majburiy etib belgilandi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining "Ma'muriy sud ishlarini yuritishda prokuror ishtiroki samaradorligini oshirish to'g'risida"gi 260-son buyrug'ida yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ma'muriy ishlarda prokurorning ishtirok etishi majburiy hisoblanib, O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining sudlarda ma'muriy ishlar ko'rilishidagi asosiy vazifalari o'z ifodasini topgan. Unga ko'ra, qonunda belgilangan vakolatlar orqali sud hujjatlarining qonuniy va asosli bo'lishiga erishishdan hamda qonuniylikni mustahkamlash, qonun ustuvorligini ta'minlash, ma'muriy va boshqa ommaviy huquqiy munosabatlar sohasida fuqarolar va yuridik shaxslarning, jamiyat va davlatning huquqlari yoxud qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini samarali himoya qilishdan iborat ekanligi O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlarining sudlarda ma'muriy ishlar ko'rilishidagi asosiy vazifalari sifatida belgilangan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining sohaviy buyrug'ida prokuratura organlarining sudlarda ma'muriy ishlar ko'rilishidagi asosiy vazifalari sifatida qonuniylikni mustahkamlash, qonun ustuvorligini, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini samarali himoya qilishni ta'minlash nazarda tutilgan bo'lib, bu vazifalar O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi "Prokuratura to'g'risida"gi qonunining 4-moddasida nazarda tutilgan prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlariga mos keladi. Biroq mazkur qonunning 4-moddasida "sudlarda jinoyat ishlari ko'rib chiqilayotganda davlat ayblovini quvvatlash, sudlarda fuqarolik ishlarini, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni hamda iqtisodiy nizolarni ko'rishda ishtirok etish, qonunlarga zid bo'lgan sud hujjatlariga protest keltirish" belgilangan bo'lib, mazkur normada prokurorning ma'muriy sudlardagi ishtiroki tartibga solinmagan. Shuning

uchun, prokurorning ma'muriy sudlardagi ishtirokining huquqiy asosini mustahkamlash maqsadida 2001-yil 29-avgustdagi "Prokuratura to'g'risida"gi qonunining 4-moddasi birinchi qismining oltinchi xatboshisini quyidagicha bayon etishni taklif etamiz: "sudlarda jinoyat ishlari ko'rib chiqilayotganda davlat ayblovini quvvatlaydi va ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarda qatnashish hamda fuqarolik, iqtisodiy va ma'muriy sudlarda nizolarni ko'rishda ishtirok etish, qonunlarga zid bo'lgan sud hujjatlariga protest keltirish".

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Ma'muriy ishlar bo'yicha sudlov hay'ati tomonidan 2025-yilning ikkinchi yarmida taftish tartibidagi shikoyat va protestlar asosida jami 1 060 ta ish o'rganilgan. Ushbu ishlarning 157 tasi taftish tartibida ko'rib chiqilgan. Natijada 93 ta ish bo'yicha sud hujjatlari o'zgarishsiz qoldirilgan, 64 ta ish bo'yicha esa sud hujjatlari bekor qilingan. Bekor qilingan qarorlarning muhim qismi yerga oid nizolarga to'g'ri keladi (26 ta ish).

Ular hududlar kesimida quyidagicha taqsimlangan: Toshkent va Samarqand viloyatlarida 4 tadan, Sirdaryo va Farg'ona viloyatlarida hamda Toshkent shahrida 3 tadan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro va Xorazm viloyatlarida 2 tadan, shuningdek Qashqadaryo, Jizzax va Namangan viloyatlarida 1 tadan ishni tashkil etgan [6].

Shu sababli, yerga oid nizoli ishlarda prokurorning majburiy ishtiroki, birinchi navbatda, yer uchastkalaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish sohasida qonuniylikni ta'minlashga hamda sudlarning ushbu toifadagi nizoli ishlar bo'yicha qonuniy, asosli va adolatli hal qiluv qarorining chiqarilishiga ko'maklashishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. Шмелев А.В. Особенности осуществления прокурорского надзора за предпринимательской деятельностью // «Вестник Саратовской государственной юридической академии», 2017 г., №6 (119). – С. 234.
3. O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi "Prokuratura to'g'risida"gi 257-II-son qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 15.08.2025-y., 03/25/1081/0738-son. <https://lex.uz/en/docs/-106197>
4. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.02.2026-y., 03/26/1117/0116-son. <https://lex.uz/docs/-3527353>
5. O'zbekiston Respublikasining 25.12.2023 yildagi "Sud qarorlarining qonuniyligi va asoslilikini tekshirish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi O'RQ-889-son qonuni //Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.12.2023-y., 03/23/889/0978-son
6. Ўзбекистон Республикаси Олий судининг Маъмурий ишлар бўйича судлов ҳайъати томонидан 2025 йил иккинчи ярмида тафтиш тартибида кўрилган ишлар бўйича суд амалиёти обзори // <https://sud.uz/wp-content/uploads>